

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYI KONFERENSIYA


YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ

2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR BATAREYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

 TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

 +998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

 WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ

 MAY №52

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
19-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-19**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-19**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 52-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФАРМАЦЕВТИКА

1. Rasulov Sh.A., Zaynutdinov H.S. TUBERKULYOZGA QARSHI ISHLATILADIGAN DORI VOSITALARINI IQTISODIY BAHOLASH	7
2. Rasulov Sh.A., Zaynutdinov H.S. TUBERKULYOZGA QARSHI ISHLATILADIGAN DORI VOSITALARINING FARMAKOIQTISODIY TAHLILI	9



ФАРМАЦЕВТИКА

TUBERKULYOZGA QARSHI ISHLATILADIGAN DORI VOSITALARINI IQTISODIY VAHOLASH

Rasulov Sh.A., Zaynutdinov H.S.

Farmatsevtik ta'lim va tadqiqot instituti,

Telefon: +998909570006

e-mail:rasulovsherzod50@mail.com

Dolzarbligi. Tuberkulez kasalligi yuqumli kasallik hisoblanib, uni Kox bakteriyasi keltirib chiqaradi. Bu kasallikning o'ziga xosligi surunkali to'liqinsimon kechishi bilan boshqa xastaliklardan ajralib turadi. «Tuberkulyoz» terminini ilk bor fransuz olimi Laennik taklif qilgan bo'lib, uning lotin tilidagi ma'nosi «Bo'rtmacha» ma'nosini anglatadi. Tuberkulez kasalligini keltirib chiqaruvchi bakteriyalarni Nemis olimi Robert Kox birinchi bo'lib 1882 yil 24 martda kashf etgan. Hozirgi kunda chet el va mahalliy ishlab chiqaruvchilarining takliflari asosida dori vositalari assortimenti doimiy ko'payishi munosabati bilan farmakoiqtisodiy izlanishlar natijalarini qo'llashga talabgorlar soni ortib bormoqda. Ishlab chiqaruvchi o'z mahsuloti uchun so'rashi mumkin bo'lgan maksimal narxni belgilasa, mahsulotning minimal narxini harajatlar belgilaydi. Davolash bahosini minimallashtirishni maqsad etgan farmakoiqtisodiyot uchun ham harajatlar muhim tushuncha va ko'rsatkichdir.

Maqsad. Mamlakatimiz tibbiyot sohasini rivojlantirish tibbiy tizimni jahon andozalari talablariga moslashtirish, tuberkulez kasalliklarini kamaytirish maqsadida qabul qilingan O'zR Prezidentining qaror va farmonlari o'rganildi. O'zR Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda PF–5590–son «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora–tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlari, 2017 yil 4 apreldagi PQ–2866–son «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida tibbiy xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga tuberkulez yordam ko'rsatishni takomillashtirish chora–tadbirlari to'g'risida»gi, 2017 yil 20 iyundagi PQ–3071–son «O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017–2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora–tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Usul va uslublar. Bemorni davolashdagi asosiy harajat ko'rsatkichlari: 1. Davolashning asosiy qiymati – dori vositalarining o'rtacha ulgurji narxi, kunlik doza miqdori va davolash kursi muddati bilan belgilanadi. 2. Bemor tomonidan kun tartibiga amal qilinishi yoki bemorni intizomlilik (patient compliance) – bemor tomonidan shifokor tavsiya va ko'rsatmalarini bajarish istagi. Bemor dori vositasini qabul qilishi, kun tartibiga amal qilish yoki qilmasligi davolash qiymatiga sezilarli ta'sir etadi. Bemorning loqaydligi dori vositasini samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Buni oldini olish uchun maxsus dori shakllari xam ishlab chiqilmoqda.

Natijalar. Tuberkulezning O'zbekistonga xos kechish xususiyatlariga katta ahamiyat berildi. Axaolining tuberkulezning o'tkir shakllari bilan kasallanishi sabablari o'rganildi, shular asosida farqli epidemiyaga qarshi tadbirlar amalga oshirildi, bu o'pkadagi tuberkulez bo'yicha epidemiologik axvolini ancha yaxshiladi. Institut xodimlarining ishlari sababli tuberkulez etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenizi, diagnostikasi va davosi bo'yicha bilimlar ancha chuqurlashdi. Bugungi kunda xam institut Respublika tuberkulezga qarshi xizmatni tashkiliy uslubiy boshqarmoqda, tuberkulezga qarshi kurashning tashkiliy shakllarini ishlab chiqmoqda, tuberkulez diagnostikasi va profilaktikasini mukammallashtirmokda.



Hulosalar. Tuberkulez kasalliklar statistik manbalar o‘rganildi va tuberkulezga qarshi dori vositalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil qilindi. O‘zR SSV buyruqlari bilan tasdiqlangan “Asosiy dori vositalar ro‘yxati” tarkibidagi tuberkulezga qarshi dori vositalari 2009 yilda 31 ta dori vositasi kiritilgan bo‘lsa, 2021 yilda ro‘yxatga 40 ta dori vositalari kiritilgan, bunda o‘shir dinamikasi 29 % ni tashkil qildi. Farmaiqisodiy tahlilning dori vositalari samaradorligini iqtisodiy baxolashdagi o‘rni o‘rganildi. O‘rganilgan nazariy ma’lumotlar kelgusi tadqiqotlarimizning asosi bo‘lib xizmat qiladi.



TUBERKULYOZGA QARSHI ISHLATILADIGAN DORI VOSITALARINING FARMAKOIQTISODIY TAHLILI

Rasulov Sh.A., Zaynutdinov H.S.

Farmatsevtik ta'lim va tadqiqot instituti,

Telefon: +998909570006

e-mail:rasulovsherzod50@mail.com

Dolzarbligi. Tuberkulez – turli a'zo va to'qimalarda maxsus o'zgarishlar rivojlanishi va butun organizmning funksional o'zgarishi bilan kechuvchi surunkali yuqumli kasallikdir. Farmakoiqtisodiy tahlil davolash-profilaktika muassasalarida aksariyat hollarda qanday dori vositalaridan foydalanish zarurligini, bemor uchun berilgan eng yaxshi, samarali va havfsiz dori vositasini aniqlash imkonini beradi. SHuningdek, ikkita davolash usullarini taqqoslash mumkinki, bunda ushbu davolash sxemasini qo'llashda bemorning sog'ligi yaxshilanishi hamda kasallikni davolash uchun aniq dori vositasini tanlash imkonini beradi.

Maqsad. Farmakoiqtisodiyot bu – sog'liqni saqlash tizimida bemorlarni dori vositalari bilan davolash qiymatini tahlil qilishdir. Farmakoiqtisodiyotning maqsadi minimal iqtisodiy harajatlarda maksimal klinik samaradorlikka erishishni ta'minlashdir. Ta'kidlash lozimki minimal harajatlar deyilganda dori vositalarini eng arzoni nazarda tutilmaydi. Farmakoiqtisodiyotda asosiy maqsad dori vositasi qiymatidan, narxidan tejash emas, balki yuqori samaradorlikka ega va havfsizroq dori vositasini qo'llagan holda umumiy davolash harajatlaridan tejashga harakat qilishdir.

Usul va uslublar. Tibbiyot tizimi rivojlangan davlatlarda asosiy mablag'lar farmakoterapiya, bemorlar tashxisi, profilaktika ishlari va statsionar davolashga yo'naltiriladi.

Natijalar. Tuberkulezning turli ko'rinishlari patologoanatomik yorishlarda tez-tez aniqlanib turiladi. Turli mamlakatlarda o'lim sabablarini statistik xisobga olish yo'lga qo'yilgandan so'ng tuberkulezni tarqalganligi haqida ancha ishonchili ma'lumotlarga ega bo'lindi. Masalan, 1680 yilda Londonda tuberkulezdan o'lish 100 000 aholiga 700 ni tashkil etgan, 1881 yilda Moskvada bu ko'rsatkich 400/100 000 ni tashkil etgan. SHunday qilib XVIII asr boshida tuberkulez haqidagi ta'limot kliniko-anatomik va eksperimental ma'lumotlarga asoslangan. Bitta davlat yoki dunyo miqiyosida olib qaraganimizda sog'liqni saqlash tizimi harajatlari, ya'ni davolashga ketadigan harajatlar doimiy oshib bormoqda. SHuning uchun muqobil davolash usullarini tanlash muammosini hal qilishda iqtisodiy omillar asosiy o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda quyidagi muhim savol o'z javobini topishni talab etadi: - dori vositasi aks ettirgan narx darajasida samaradorlikka egami?

Dori vositalarini iqtisodiy baholash – bu nafaqat muqobil davolash usullarini narxini solishtirish, balki davolash usullarining klinik jarayonlarini, yangi dori vositasini qo'llaganda oqibatlarini, shuningdek barcha asosiy davolash usuli, dori vositalari bilan birga ishlatiladigan vositalar (tibbiy texnika anjomlari), tibbiy personal harajatlarini o'z ichiga olgan holda butun moliyaviy harajatlarni baholashdir. Odatda davolash jarayoni davolashning samaradorligiga, havfsizligiga ko'ra baholanadi. Bu maqsadda aniq terapevtik ko'rsatkichlar bo'yicha davolash natijalarini baholaydigan yondashuvlar ishlab chiqilgan, masalan GCP (Good Clinical Practice) standarti. SHuning bilan birga yuqorida qayd etilganidek, dori vositalarini samaradorligini va havfsizligini baholashda iqtisodiy tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Davlatning iqtisodiy imkoniyatlari hamda zamonaviy tibbiyotga bo'lgan ehtiyoji darajasining mutanosibliigi farmakoiqtisodiy izlanishlar asosida tartibga solinadi. Farmakoiqtisodiyot (Pharmacoeconomics) – farmakoterapiya hamda boshqa tibbiyot va farmatsevtik xizmatlarda qo'llanuvchi vositalar samaradorligini iqtisodiy baholashga yo'naltirilgan farmatsevtika fanidir.

Hulosalar. Farmakoiqtisodiyot o'rganuvchi sohalar: kamida ikki xil ko'rinishdagi davolash usullarini solishtirish asosida farmakoterapevtik xulosa olish; yangi dori vositalarini havfsizligi va samaradorligini aniqlash; farmakoterapiya va tashxis qo'yishda iqtisodiy harajatlarni hisoblash; farmakoepidemiologik statistika (farmakoepidemiologiya-farmakoiqtisodiyotning tarkibiy qismi bo'lib, bozorda yangi ishlab chiqarilgan dori vositalarining segmenti, zararlilik va havfsizlik darajalarini tekshiradi); dori vositalarini bir guruh kasalliklarda klinik sinovlarini hujjatlashtirish.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 19-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2023

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000